

Buxoro davlat universiteti
o'quv-metodik kengash 11-sonli
yig'ilishining bayonnomasidan

K O' CH I R M A

27.06.2022

Buxoro shahri

K U N T A R T I B I:

1. Turli masalalar.

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasi o'qituvchilari Sh.O. Alimova va S.F. Salimovaning 61010400-Turizm, 5611500-Gid hamrohligi va tarjima nazariyasi ta'lif yo'naliishlari uchun "Ekskursiya xizmatlarini tashkil etish fanidan tayanch izohli iboralarni qo'llash bo'yicha" deb nomlangan uslubiy ko'rsatma tavsiya etish.

E S H I T I L D I:

M.Y. Faranova (kengash kotibasi) - Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasi o'qituvchilari Sh.O. Alimova va S.F. Salimovaning 61010400-Turizm, 5611500-Gid hamrohligi va tarjima nazariyasi ta'lif yo'naliishlari uchun "Ekskursiya xizmatlarini tashkil etish fanidan tayanch izohli iboralarni qo'llash bo'yicha" deb nomlangan uslubiy ko'rsatmani nashrga tavsiya etishni ma'lum qildi. Ushbu uslubiy ko'rsatmaga: Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasi dotsenti N.S. Ibragimov va Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrasi professori i.f.d. B.N. Navro'z-zodalar tomonidan ijobiy taqriz berilgani ta'kidlandi. Uslubiy ko'rsatma muhokamasi haqidagi Iqtisodiyot va turizm fakulteti (2022-yil 28-may) va Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasi (2022-yil 27-may) yig'ilish qarori bilan tanishtirdi.

Yuqoridagilarni inobatga olib o'quv-metodik kengash

Q A R O R Q I L A D I:

1. Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasi o'qituvchilari Sh.O. Alimova va S.F. Salimovaning 61010400-Turizm, 5611500-Gid hamrohligi va tarjima nazariyasi ta'lif yo'naliishlari uchun "Ekskursiya xizmatlarini tashkil etish fanidan tayanch izohli iboralarni qo'llash bo'yicha" deb nomlangan uslubiy ko'rsatma nashrga tavsiya etilsin.

O'quv-metodik kengash raisi

R.G'. Jumayev

O'quv-metodik kengash kotibasi

M.Y. Faranova



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



**«EKSKURSIYA XIZMATLARINI TASHKIL
ETISH»fanidan**

**tayanch izohli iboralarni qo'llash bo'yicha uslubiy ko'rsatma
(o'zbek-rus tillarida)**

61010400 – “Turizm (faoliyat turlari bo'yicha)” bakalavr yo'nalişidagi talabalari

5611500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati(tillar bo'yicha)

Buxoro Davlat Universiteti, «Turizm va mehmonxona xo'jaligi» kafedrasi o`qituvchilari Alimova Sh.O , Salimova S.F – 61010400 - “Turizm (faoliyat turlari bo'yicha)” va 5611500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati(tillar bo'yicha) bakalavr yo`nalishlaridagi talabalari uchun o`zbek va rus tillarida “Ekskursiya xizmatlarini tashkil etish” fanidan tayanch izohli iboralarni qo'llash bo'yicha uslubiy ko`rsatma B.: BuxDU, 2022 yil. 40 bet.

Annotasiya: Ushbu tayanch izohli iboralarni qo'llash bo'yicha uslubiy ko`rsatma ekskursiya xizmatini tashkil qilishni o'qitishda talabalariga yaqindan yordam beradi va ekskursiya jarayonida kerakli bo'lgan zaruriy atamalar izohlaydi.

TAQRIZCHILAR:

Navro`z-zoda B.N., BuxDU, “SERVIS SOHASI IQTISODIYOTI” kafedrasi professori, i.f.d.

Ibragimov N.S., „TURIZM VA MEHMONXONA XO'JALIGI” kafedrasi dotsenti

Izohli lug`at:

Buxoro Davlat Universiteti «Turizm va mehmonxona xo'jaligi» kafedrasi yig'ilishida muhokama qilingan va tavsiya etilgan (39- sonli bayonnomha, 27 may, yil).

Buxoro Davlat Universiteti “IQTISODIYOT VA TURIZM” fakultet ilmiy kengashida muhokama qilingan va tavsiya etilgan (10- sonli bayonnomha, 28 may, 2022 yil).

Buxoro Davlat Universiteti o'quv-metodik kengash yig'ilishida muhokama qilingan (11sonli majlis bayonnomasi, 27iyun, 2022 yil).

KIRISH

Respublikamizda turizm sohasini rivojlantirish uchun barcha zarur manbalar mavjud. Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashgan Vatanimiz qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga, boy tarixiy, madaniy merosga va ayni paytda ham ichki va ham xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega.

Mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida turizm va mehmondo‘stlik sohasidagi yechimini kutib turgan masalalardan biri malakaviy talablarga javob bera oladigan kadrlarni tayyorlashdir.

Turizm sohasida ekskursiya xizmati asosiy xizmatlardan biri hisoblanadi. Tashrif buyurgan turist eng avvalo mamlakatning tarixi, madaniyati, ijtimoiy hayoti, tabiiy resurslari bilan tanishishni, tomosha qilishni xohlaydi. Ekskursiya xizmati o‘zining ko‘rgazmaliligi, mazmundorligi, hissiyotliligi bilan ekskursantlarning ma’naviy dunyoqarashi shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

«Ekskursiya xizmatini tashkil qilish» fani «Turizm (faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha)» hamda “Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati(tillar bo‘yicha)” yo‘nalishlari bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar uchun mutaxassislik fani sifatida ahamiyatlidir. Ushbu kursdan talabalar turizm sohasida ekskursiya xizmatlarini sifatli tashkil qilish haqida zaruriy ma’lumotlarga ega bo‘ladilar.

«Ekskursiya xizmatini tashkil qilish» fanini o‘qitishdan maqsad - talabalarni mamlakatimizning boy tarixiy merosi, ekologik-rekreatsion hududlari, ishlab-chiqarish ob’ektlari, ziyoratgohlarida sifatli, xavfsiz ekskursiya xizmatlarini tashkil etish hamda, ulardan turizm sohasida samarali foydalanish bo‘yicha bilimlar berishdir. Shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, fan bo‘yicha respublikada zaruriy adabiyotlar yetarli bo‘lib, turizm ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha mualliflar tomonidan tayyorlangan ushbu izohli lug‘at ekskursiya xizmatini tashkil qilishni o‘qitishda talabalariga yaqindan yordam beradi va ekskursiya jarayonida kerakli bo‘lgan zaruriy atamalar izohlaydi.

AVTOBUSLI MARSHRUTLAR- bunda turistlar mamlakatlarni, butun turistlik destinatsiyalarni bir punktdan ikkinchi punktga harakatlanib kesib o‘tadilar, umuman turistlar avtobuslarda juda oz uxlaydilar, asosan uplash uchun qimmat bo‘lmagan mehmonxona yoki otellar kuzda tutiladi.

AKVIZITSIYA-mamlakatga xorijiy turistlarni jalb qilish.

AKTIV TURIZMGA har - xil sarguzashtli sayohatlarni kiritish mumkin: sarguzashtli turizm (adventure tour), ekzotik joylarga, vulqonlarga, orollarga, sharsharalarga va shu kabi joylarga borishga aytildi

ANNULYATSIYA-turistlar safarini bekor qilish.

ARK - Poytaxtdagi qasr; xon yoki amirning atrofi baland devor bilan o‘ralgan qo‘rg‘on-saroyi.

ARXELOGIYA YODGORLIKHLARI – arxeologik tadqikotlarning ob’ekti bo‘lib xizmat qiluvchi, yerning usti va ostida saqlanib qolgan qadimgi inshootlar va buyumlar.

ASOSIY MATN - turli manbalardan tanlab olingan ma’lumot

AVLIYO - vali so’zining ko’pligi, aziz, bilimdon, o’qimishli, hurmatli odam.

AYVON — O‘rta Osiyoda iqlimiylar sharoit (asosan yoz fasli)ga mo‘ljallab qurilgan usti yopiq, 1, 2 yoki 3 tomoni ochiq bino.

BIRINCHI KLASS – bu ham nisbatan yuqori darajali xizmat ko‘rsatish bo‘lib, 4-5 yulduzli mehmonxonalarga joylashtirish, biznes klass darajadagi samalyotlarda uchishni, obro‘yli restoranlarda ovqatlanishni, individual transfertni, gid xizmatlarini nazarda tutadi.

BUYURTMALI TUR - Buyurtmali turlarni sotishda dasturni shakllantirish va xizmatlar tarkibini yaxlitlash turist xohishiga binoan, uning bevosa ishtirokida amalga oshiriladi.

BUXORO - Buxoro sanskritcha “vixara” so‘zidan olingan bo‘lib, “qal’a” ma’nosini bildiradi. Boshqa manbalarda «Bug'-oro», ya’ni «Tangri bezagi», «Tangri jilosi» yoki «Tangri jamoli» ma’nolarini anglatuvchi yagona nom bilan yuritiladi.

EKZOTIKA (G‘ALATI, AJIB) TURIZMI - Keyingi yillarda o‘zining ajibligi bilan taajublanarli turlar paydo bo‘la boshladi. Bular qatoriga ko‘yidagilarni kirlitsa bo‘ladi: «Manos travel» nomli grek turfirmasi Oyga sayohatni rejalashtiradi.

EKSURSIYA - bu diqqatga sazovor joylar, tarixiy va madaniy yodgorliklarni ko‘rsatish, tomosha qilishning uslubiy jihatdan tashkillashtirilishidir. Bu jarayon negizida ekskursantlar ko‘z oldida turgan ob’ektlarni tahlil qilish va ular bilan bog‘liq voqealarni gid-kuzatuvchi tomonidan hikoya qilishi yotadi.

EKSURSIYA XIZMATI - bu tarixiy va madaniy yodgorliklar, tabiat manzaralari, ishlab chiqarish korxonalari va boshqa diqqatga sazovor joylarni ko‘rsatish, hikoya qilish jarayonini uslubiy jihatdan tashkil qilishdir.

EKSURSIYA XIZMATI MARSHRUTI- bu mavzuni yoritishga ko‘maklashuvchi ekskursiya guruhi harakatlanadigan qulay yo‘ldir.

EKSURSIYA TURIZMI - bir aholi punktidan (mamlakatdan) ikkinchisiga tez-tez ko‘chirish va har kuni majburiy va bir nechta ixtiyoriy ekskursiyalar bilan oldindan belgilangan dastur bo‘yicha bir kundan ortiq davom etadigan ta‘lim maqsadiga ega sayohatlar.

ETNOGRAFIK EKSURSIYALAR - turli millat va elatlarning hayoti va urfodatlari haqida hikoya qiluvchi ekskursiyalar (masalan, Kiev chekkasidagi Pirogovo qishlog‘idagi, Lvov yoki Pereyaslav-Xmelnitskiydag‘i xalq me’morchiligi va turmushi muzeylari hududi).

EKSURSIYA TARKIBI - ekskursiyaning tarkibiy qismlarining joylashishi, ketma-ketligi va o‘zaro bog‘liqligi: asosiy savollarning kichik mavzulari, kirish va yakuniy qism.

EKSURSIYANING NAZORAT MATNI - ekskursiya mavzusini ochib beruvchi tanlangan va takomillashtirilgan (tekshirilgan) ekskursiya materialidir.

EKSURSANT — vaqtincha bo‘lish mamlakatida (joyida) tunab qolmasdan yigirma to‘rt soatdan oshmaydigan davrda sayohat qiluvchi jismoniy shaxs.

EKSURSANT REPLIKASI – uning biror- bir narsa yuzasidan fikri

EKSURSIYA YETAKCHISI — turistlar va ekskursantlarni muayyan turistik resurs bilan tanishtirish uchun kasbiy jihatdan tayyorgarlik ko‘rgan, O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxs.

EKOTURIZM atrof muhitni saqlashda iqtisodiy raxbatlantirish uchun sharoit yaratadi. «Ekoturizm» tushunchasi sayohatlarni juda keng qirralarini qamrab oladi, ya’ni, o‘quvchilar uchun uncha katta bo‘lmagan tanishuv turlaridan tortib, to milliy parklar va qo‘riqxonalarlarga uzluksiz turistlik sayohatlarni qamrab oladi.

EKSPONAT (lotincha: exponatus — ko‘rgazmaga qo‘yilgan) — muzey va ko‘rgazmalarga qo‘yiladigan va namoyish qilinadigan narsa (badiiy asar, tarixiy hujjat va h.k.)

EKSPOZITSIYA - (lotincha: — ko‘rsatish, bayon etish) — badiiy asar, moddiy madaniy yodgorliklar, tarixiy hujjat va boshqalarni ko‘rgazma va muzey zallarida yoki ochiq joylarda ma’lum tizimda joylashtirilishi.

FUNKSIYA – biror bir ob’ektning tashqi namoyon bo‘lishi, muassasa, korxonaning ishlash shaklidir.

HARBIY-TARIXIY EKSURSIYALAR - harbiy shon-sharaf joylarida (masalan, Jovti-Vodi yaqinidagi janglarda) bo‘lib o’tadigan yoki qadimgi harbiy muhandislik san’ati istehkomlarini (qal’alar, qal’alar, sopol qal’alar, bosmalar, bunkerlar, boshpanalar va boshqalar) ziyorat qilishga qaratilgan eksursiyalar. .).

HOSHIYA — naqsh mujassamotida asosiy qismlardan; biror narsaning asosiy qismidan ajralib turadigan cheti, atrofi, zehi. Amaliy bezak san’atida naqsh mujassamoti tuzilishidagi muhim qism, bo‘lak; markaziy maydon va uni o‘rab turadigan hoshiya naqshdan iborat mujassamot keng tarqalgan; ba’zan bezak faqat hoshiya naqshdan iborat bo‘ladi. Bezatilayotgan maydon (perspektiva, nisbatlar)ga qarab hoshiya turlicha (ingichka, yo‘g‘on kabi) kenglikda bo‘ladi; ba’zan 2 parallel chiziqlar orasiga ham naqshlar ishlanadi. Hoshiya naqshlarni bir-biridan ajratib turish uchun ularning orasiga chiziladigan parallel to‘g‘ri chiziqdan boshlab to murakkab naqshlargacha tarkib topadi.


GAJJAK — me’morlikda ravoqlar ko‘ndalang kesishishi natijasida paydo bo‘lgan qalqonsimon shakl. Xona devorlari ustiga, ravoqlar qatori orasiga ishlanadi.

Gajjak yordamida xona devorlariga o‘rnatilgan ravoqlar doira holiga keltiriladi. Gajjak g‘o‘lalarining yo`g‘onligi ravoqpar orasining kengligiga bog‘liq bulib, kichik binolarda Gajjak kesmasining har tomoni 8—12 sm ga baravar bo`ladi. Gajjakning uchlari bir-biriga va negizlari ravoqdarga tiralib turadi. Ba’zan ravoq oralariga Gajjak o‘rnatilmay, hoshiya g‘ishtlari gumbaz negiziga moslab teriladi. Gajjakning ustma-ust ishlangan murakkab turi ham keng qo‘llanilgan. Gumbaz ostidagi halqa devor ravoq bilan Gajjakning tepasidan o‘tadi, shu sababli gumbaz poyalari ravoq yoyining taxminan yarim balandligiga tiralib, uchlari esa ravoq uchlari bilan bir xil balandlikda bo`lishi lozim.

GANCHKORLIK — badiiy hunarmandlik turi; amaliy san’atning ganchda ishlash bilan bog‘liq sohasi. Binolarni bezashda, me’moriy detallar ishlashda, de.vor va shiftlarni suvashda, bezak shakllar hamda o‘yma naqsh va tasvirlar yaratishda keng qo‘llaniladi. Ganchkorlikda bezak ikki usulda bajariladi: o‘ymakori usulida bino devori ganch suvoq qilinib, bezatiladigan qismiga naqsh ishlanadi; qolipaki usulida tayyor bezak ganch taxtalarida bezatiladigan sirtga o‘rnatiladi. Qolipaki usuli bezakni birdaniga ko‘p miqdorda tayyorlash imkonini beradi (hozir korxonalarda qoliplar yordamida ham ko‘p nusxada tayyorlanadi).

GID (GID-TARJIMON) — axborotga oid va tashkiliy xizmatlar ko‘rsatish, turistlar va ekskursantlarni vaqtincha bo‘lish mamlakatidagi (joyidagi) turistik resurslar bilan tanishtirish uchun kasbiy jihatdan tayyorgarlik ko‘rgan, O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxs.

GID PORTFELI - ekskursiyani o‘tkazish jarayonida foydalanadigan ko‘rgazmali vositalar jamlanmasi



GIRIH - (fors. — muammo, tugun, chigal) — murakkab handasiy naqsh; me’morlik va badiiy hunarmandlikda keng ishlatiladi.

GURUHLI TURIZM - Nisbatan arzon, ko‘p sonli turistlar uchun hamyonbop, ammo guruhli turizmda guruhning barcha a’zolari o‘rnatilgan tartibga bo‘ysu-nishlari lozim.

GULTOJ - darvozalarning ustki qismidagi kungurali g‘isht terilmasi

GUMBAZ - qubba shaklidagi tom gumbazi, balxi, charxi, chortoq, chorkunjak, mirzoi kulohi, shalg’ami va hokazo turlari bor.

GULDASTA — burj, tashqi devorlar tutashgan burchakda tirkak sifatida va ayni paytda, bezak maqsadida devorga qo’shib tiklangan ustunsimon qurilma.

GO’ZAL TOG’LI MAVZELARGA SAYOHAT, tog’larda sayr qilish, guzal joylarni tomosha qilish.Masalan: Grand Kanon, Tosh barmoqlar vodiysi (Avstraliya), Ulkan sharsharalar (Niagara, Viktoriya). Turistlar uchun ularni tomosha qiladigan maydonchalar, moslamalar o’rnatilgan.

DINIY TURIZM- (haj safari Makkayu Madina va Umra safar, ziyorati) hozirgi vaqtda juda yuqori talabga ega bo‘lib, ommaviy tus olmoqda.

IJTIMOIY TURIZM – bu davlat tomonidan ijtimoiy ehtiyojlarga ajratiladigan mablag’lar hisobidan sayohat qilish hisoblanadi. Ijtimoiy turizmning maqsadi foyda olish emas, balki daromadi kam bo‘lgan kishilarni dam olishga bo‘lgan huquqini amalga oshirish uchun ularni qo’llab quvvatlash hisoblanadi.

ILMIY TURIZM - O‘qish, ta’lim olish maqsadida, malaka oshirish maqsadida safar qilish xalqaro turizmning nisbatan yangi turlari safiga kiradi.

INDIVIDUAL TUR - Turistlarga ko‘proq erkinlik va mustaqil harakatlanish imkonini beradi. Guruhli turlarga nisbatan qimmatroq, chunki individual turlar tarkibiga kiruvchi ichki marshrutdagi transport, gid xizmatlari va ba’zi boshqa xizmatlar uchun to‘lov to‘lig‘icha turist zimmasiga tushadi.

INDIVIDUAL MATNI - ekskursiya hikoyasining assosi, ekskursiya xizmati tarkibiy tuzilishi va uslubiy ishlanmasi bilan to‘liq uyg‘unlikda tayyorланади.

INKLYUZIV TUR - (IT) Bu oldindan rejalashtirilgan va dam olishning yoki turizmning ma’lum turi, hamda turistlarning ma’lum ijtimoiy guruhiga va uning yoniga yo’naltirilgan qat’iy xizmatlar to‘plamidir.

ICHKI TURIZM - o‘z davlati chegarasi doirasida doimiy yashovchi fuqarolarni vaqtinchalik tashrif buyurovchi joyda (to‘lanadigan faoliyatsiz) turistik maqsadlarda sayohat qilishi.

HUJRA — an’anaviy o‘zbek me’morligidagi eng kichik xona; bir yoki bir necha kishiga mo‘ljallangan yotoqxona

KARVONSAROY— karvonlar to‘xtab, tunab o‘tadigan rabot, saroy. Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo, Zakavkazye shaharlari savdo yo‘lida barpo etilgan. Karvonsaroylar, odatda, o‘rtada katta hovli, atrofi bir-ikki qavatli hujralar bilan o‘ralgan, minorali qal’aband istehkom shaklida bo‘lib, savdo manzillarida va shahardagi bozorlar (tim va toqlar) qatoriga qurilgan. IX—XVIII asrlarda shaharlarning o‘sishi va karvon savdosining kuchayishi natijasida karvonsaroylar ko‘plab bunyod etilgan.

KIRUVCHI TURIZM- faoliyati to‘lanmaydigan turistlik maqsadlarda doimiy yashamaydigan shaxslarni o‘zga mamlakat hududiga tashrifi, sayohati.

KASB – aniq bilim va ko‘nikmalar jamlanmasini talab qiluvchi mehnat faoliyati shaklidir.

KOSHIN – parchin, kafel — biyolar, kaminlar va pechlar sirtiga qoplash uchun maxsus pishirilgan sirkor yupqa sopol pint skichipni taxtacha.

KORIZ (fors.) — yer osti suvlarini yig‘ish va ularni yer yuzasiga chiqarish uchun quriladigan yer osti inshooti; aholini suv bilan ta’minalash va sug‘orish.

KO‘NGIL OCHAR TURLAR— (entertainment) turizm dasturlarida ma’lum ma’noda turistlar uchun qo‘srimcha xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan. «Turistning yaxshi ko‘ngil ochishi» uchun xizmatlarning barcha qirralarini ochishda yordam beradi. Bu faol o‘yinlar (golf, kriket, kegli), otlarda sayr qilmoq, attraksionlarga borish (tematik bog‘lar, masalan, Disneylend, Delfi kari, zooparklar), restoranlar, dangsinglar, diskoklublar, magazinlar, kazino va boshqalar shular jumlasiga kiradi.


KO‘NIKMA- bu insonning aniq harakatlarni bajara olishidir.

KO‘SHK — to‘rt ustunli, tomi gumbazli, asosan, yog‘ochdan qurilgan yengil inshoot; pavilon, kiosk. Kelib chiqishi jihatidan oddiy o‘tovga borib taqaladi. O‘rta asrlar Sharq me’morligida keng tarqalgan. Dastlab qadimgi ko‘chmanchi xalqlarning ko‘chib yurishiga qulay uy sifatida paydo bo‘lgan.

KUFIY— xattotlik uslubi; qadimiylar yozuvlaridan. Harflar to‘g‘ri va doira chiziklar asosida yoziladi.

MUTAXASSISLIK – bir kasb zahirasidagi faoliyat turi.






MADRASA — musulmonlarning o'rta va oliv o'quv dargohi. Madrasalar musulmon olamida me'morlik inshooti sifatida X—XI asrlarda vujudga kelgan. Ilk madrasalar bir qavatli, o'rtasi hovli va uning atrofi hujralardan iborat bo'lgan. Ba'zan gumbazli go'rxona qurilib, madrasaga homiylik qilgan kishining sag'anasi qo'yilgan. XIV—XVI asrlardan boshlab hashamatli madrasa binolari qurish avj oldi. Ular 2—3 qavatli qurilib, odatda, katta va go'zal peshtoqli, atrofi hujralar bilan o'ralgan hovlisi, darsxona, kutubxona va masjidi bo'lgan. Keyinroq, katta madrasalar yoniga minora qurish rasm bo'lgan. Kirish peshtoqining ro'parasida, peshayvon bo'lib, u yozgi darsxona vazifasini bajargan hamda hovliga salobat bergen. Ba'zan madrasalarda hujralarning hovli tomoni ravoqli ayvonlar bilan o'ralib, hovli o'rtasida hovuz qilingan. Madrasalarning tashqi va ichki qismi har xil rangli koshinkori va ganchkor bezaklar bilan padozlangan. Qur'ondan oyatlar va hadislar ko'chirib yozilgan.

MALAKAVIY ISH TURIZMI - Turizmning mazkur turiga ish maqsadlari bilan safarlar kiradi. Hozirgi zamонавиy тараққиy etgan jamiyatda hayot xalqaro aloqalarni bog'lash zaruriyatini chiqarmoqda. So'ngi yillarda ishchan soha vakillarining, tadbirkorlarning tashriflari ommaviy tus olmoqda.

MALAKA- bu insonning egallagan bilim va ko'nikmalar yordamida ma'lum harakatlarni bajarishdir.

MAROSIM TURIZMI – (ritual tour) odatda qarindoshlarning qabrlari yoki janglarda vafot etganlar dafin etilgan joylarga uyushtiriladi. Qarindoshlar yoki yaqinlar qabrlari va maqbaralarini ziyorat qilish marosim turizmining asosini tashkil etadi.


MASJID — musulmonlar jamoa bo'lib, namoz o'qiydigan joy, ibodatxona. Masjidlar, asosan, kundalik besh vaqt namoz o'qish uchun mo'ljallangan. Juma va hayit namozlari esa jome masjidlarida o'qiladi Birinchi masjidni Madinada Muhammad payg'ambar qurdirgan. Masjidlar dastlab shaharlarda, keyinchalik qishloq va mahallalarda barpo etilgan.



Masjidlarning to‘rida, Makkaga qaragan (qibla) tomonida mehrob, hovlisida hovuz, bir yoki bir necha minora bo‘ladi. Ayrim yirik masjidlar mehrobining o‘ng tomonida va’zzxonlik uchun mo‘ljallangan minbar, ba’zilarida esa Qur’on o‘qiladigan maxsus joylar ham bo‘ladi. Ba’zi masjidlar huzurida maktablar ham bo‘lib, ularda o‘g‘il bolalarga Qur’on o‘qish o‘rgatiladi. Masjidlarda juma va hayit namozi kunlari imom-xatiblar xutba o‘qib, turli diniy masalalar bo‘yicha va’zzxonlik qiladi. O‘zbekistonda 2000 ga yaqin masjid bor (2003). Masjidlarda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida"gi qonunga amal qilingan holda faoliyat yuritiladi.

MAQBARA (arab, marqad, turbat) — biror mayitning jasadi joylashgan me’moriy inshoot yoki tosh tobut (daxma, sag‘ana). Maqbara usti qubbali chortoqli bino bo‘lib, ramziy g‘oyalarni o‘zida ifodalagan. Chortoq — yer kurrasini ifoda etuvchi barqaror shakl, qubba — osmon gumbazi ramzi, bular birgalikda Koinotni anglatgan. "Koinot modeli" ning bu tarzda barpo etilishi borliqning Alloh tomonidan yaratilgani haqidagi aqidaga muvofiqlashtirilgan.

Sharqda dastlab qabr ustiga biror tosh qo‘yish, imorat qurish man etilgan bo‘lsada IX asrdan xalifalar sharafiga maqbaralar qurila boshlangan. Movarounnahrda ham IX asrdan maxsus maqbaralar qurish odat tusiga kirgan. Keyinchalik, asosan, mashhur kishilar (podshohlar, ruhoniylar, olimlar) qabri ustiga turli maqbaralar qurilgan. Oddiy maqbara gumbazli chorsi xonadan iborat bo‘lgan, unga peshtoqli eshik orqali kirilgan. Ba’zan xonaning 4 tomoni ravoqli-chordara shaklida bo‘ladi, keyinchalik maqbara qurilishi tobora murakkablasha borib, unda ziyoratxona, go‘rxona, tagxona sardoba kabi maxsus xonalar paydo bo‘lgan.



MEHROB — masjidning Makka (Kaba)ga qarata yo‘naltirib devor ichiga ishlangan ravoq shaklli joy, sajdagoh.

ME’MORLIK (ARXITEKTURA) — foydalanishdagi maqsad va vazifalar, zamonaviy texnik imkoniyatlar va jamiyatning estetik qarashlaridan kelib chiqib bino va inshootlarni loyihalash va qurish san’ati.

MEMORIAL LAVHA - ko‘chmas tarixiy-madaniy ob’yektlar yoki esda qolarli joylarga o‘rnataladigan, tarixiy-madaniy ob’yektning tarixiy voqealar yoki atoqli shaxslar bilan aloqasini ochib beruvchi matnli yodgorlik belgisi.

MEMORIAL VA TARIXIY EKSKURSIYALAR - taniqli shaxslar yoki taqdirli voqealar bilan tanishish va xotiraga bag‘ishlangan ekskursiyalar.

MEZANA (arab.)— minoraning yuqori qismi, Muazzin azon aytadigan joy. Biror bino (peshtoq, darvozaxona) ustiga qurilishi mumkin. Mezana aylana shaklida va ko‘p qirrali bo‘ladi. Ko‘pincha, ravoqsimon darchalar qatoridan iborat. Ichki devorlari ganch bilan naqshlanadi, tashqarisi minoraning umumiyliz bezagiga mos holda sirkor parchinlar bilan bezatiladi. Mezananing tepasi gumbazcha (qubba) bilan yopiladi, ba’zan ochiq bo‘lishi ham mumkin. Ayrim hollarda guldasta yoki burjlar ham mezana vazifasini o‘tagan.

MOZAIKA (frans. masaique — muzalarga bag‘ishlangan) — bir xil yoki turli xom ashyo (koshin, tosh, yogoch, marmar, metall va b.) bo‘laklaridan ishlangan.

MINBAR —(arab.) masjidlarda imom va’z aytishi uchun mehrob yoniga ishlangan zinali supa. Minbar tosh yoki yog`ochdan ishlanib, naqshlar bilan serhasham bezatilgan.



MINORA — (arab. - mayoq) gorizontal (eni) o‘lchamiga nisbatan vertikal (tik) o‘lchami ortiq bo‘lgan baland inshoot. Minoralar aylana, ko‘p qirrali yoki to‘rtburchak shaklida barpo qilinib, yuqoriga tomon ingichkalashib boradi. Dengiz sohillarida kemalarning adashmay portga kelishiga xizmat qiladigan (mayoq), televide niye va boshqa maqsadlarga xizmat qiladigan minoralar ham bor. Inshootning yuqorisiga chiqish uchun uning ichida aylanma zina bo‘ladi.

MIYONSAROY — 1) markaziy xona, o‘rta xona, vestibyul; 2) masjid, madrasalarga kiraverishdagi dalon.



MUQARNAS — me’moriy bezak turi; ravoqli kosachalarning (uyachalarning) ustma-ust joylashishidan xosil bo‘ladigan murakkab shakl.

MUAZZIN - (arab. — e’lon etuvchi, chaqiruvchi) — masjidda azon aytib, namozga chorlovchi shaxs; xalq tilida so‘fi deb ham ataladi.

NAS`TALIQ – xat turi bo`lib, odatda oddiy matnlar nas`taliqda yoziladi, «nasx» va «ta’liq» atamalarining birikuvidan tashkil topgan. Mir Ali Hiraviy hamda Mir Ali Tabriziylar ana shu ikki xat asosida nasta’liq xatini yaratishgan. Buni forsiy xat ham deb ataladi,

ORNAMENT - Arxitektura va dekorativ san'atda bezak - bu bino yoki buyum qismlarini bezash uchun ishlatiladigan bezak.

PESHTOQ — Madrasa, masjid, maqbara, karvonsaroy va b. binolarning old tomoni — kirish qismi. Peshtoq binoning hashamatli baland, bezakdor me’moriy bo‘lagi.

PESHAYVON (fors, pesh — old va ayvon) — xonaning old tomoniga taqab qurilgan ayvon.

PIYODA – (walking or hiking tour) – turistlik yo‘nalishlari. Traking tour - piyoda yo‘nalish yoki sayr qilish turizmidir. Odatda yo‘nalishning uzunligi 2–6 km.dan xattoki 20-50 km.gacha cho‘zilishi mumkin.

RABOT— (arab.) o‘rta asrlarda arablarning mustahkamlangan qarorgohi. Tarhi to‘rtburchak, devorlarida minoralari bo‘lgan. Dastlab (Islom dini tarqala boshlagan davrda) g‘oziylargacha mo‘ljallab qurilgan maxsus bino. Keyinchalik rabot faqat qo‘rg‘on, istehkom ma’nosidagina emas, balki mehmonxona (karvonsaroy) mazmunida ham tushunilgan. Zohidlar ham maxsus rabotlarda yashaganlar. Markaziy Osiyoda VIII—X asrlarda ko‘chmanchi aholi yashaydigan hududlar bilan chegaradosh xududlarda ko‘plab rabotlar qurilgan. Ulardan eng mashhuri Raboti Malikdir.

RAVOQ— (**Arka**) toqning bir turi; bino devorlaridagi deraza va eshik o‘rinlarining yuqori qismiga qo‘yiladigan mehrobiy yoysimon qurilma. Ravoq yo‘nilgan, tabiiy yoki sun’iy toshlar, beton, temirbeton, yog‘och va po‘lat singari materiallardan ishlanadi. Ravoqning tayanch qismi tovon, markaziy ponasimon g‘ishti yoki toshi esa qulf deb ataladi. Ravoqlar shakliga ko‘ra: yakka markazli,

yarim aylana shaklli, baland markazli taqasimon, bir necha markazli nayzasimon, tuxumsimon bo‘ladi. Hozirgi zamon inshootlarida ichki kuchlanishlarni kamaytirish maqsadida ravoqlar 2—3 sharnirli qilib ishlanadi. Ustunlarga tiralgan bir xil hajm va shakldagi ravoqlar qatori qatorak (arkada) deb nomlangan.

REGISTON — (fors. — mayda tosh to‘shalgan joy) O‘rta Sharq mamlakatlari shaharlari dagi markaziy maydon, Turli maqsadlarda odamlar to‘planadigan joy bo‘lgan. Registon ko‘p hollarda shahar arki yoki hokimlar saroylari yoni (Buxoro, Shahrisabz, Xiva)da barpo etilgan hamda ular ma’muriy siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan. Dastlab me’moriy jihatdan sodda bo‘lgan; ko‘pchilik tomonidan toptaladigan bu joyga yozda tuprog‘i o‘ynab ketishi, yog‘ingarchilik paytida botqoqlikka aylanishidan saqlash maqsadida qumtoshlar yotqizilgan. Shu xususiyati bilan boshqa ochiqjoylardan farqlangan. Keyinchalik davrlar o‘tishi bilan registon atrofiga mahobatli jamoat binolari (jome masjidi, Madrasa, devon kabilar) qurilgan, hovuz, daraxtlar bilan obodonlashtirilib, hashamatli ko‘rinish olgan.

REKREATSION TURIZM – dam olish maqsadidagi turizm bo‘lib, qator davlatlar uchun turizmning ommaviy shakli bo‘lib hisoblanadi. Ispaniyaga, Italiyaga, Fransiyaga, Avstriyaga chet el turistlarini tashrifi avvalo mana shu maqsadni ko‘zda tutadi.

QUBBA — yarim shar shaklidagi ichi bo‘sh qism: 1) me’morlikda tom turi. Qubba (strobil) — ko‘pchilik yuksak o‘simliklar (qirqbo‘g‘imlar, plaunlar, ochiq urug‘ilar)ning ko‘payish organi; shakli o‘zgargan (yiriklashgan) novda.

SARDARA - eng katta, asosiy eshik, darvoza.



SARDOBA (fors. toj. sard — sovuq va ob — suv) — suv tanqis hududlarda uni to‘plash va saqlash uchun maxsus qurilgan gumbazli hovuz.

SAHN - yuza maydon.

SARGUZASHTLI TURIZM – o‘ziga xos tarzda dam olishni bir turi bo‘lib, turistlarni nafaqatgina ular uchun jalb qiluvchi joylar bilan ta’minlash, balki g‘alati, g‘ayritabiyy faoliyat turi bilan shug‘ullanishga jalb qiladi.

SAFARI (SAFARY TOUR)- qo‘riqxonaga hayvonlarni tomosha qilish uchun sayr, ovchilik, baliq ovi maqsadidagi sayohat, fotoovchilik, Keniya yoki JAR qo‘riqxonalariga sayr, tabiatda ajoyib hayvonlarni erkin holda ko‘rish maqsadidagi sayrlar.

SOG‘LOMLASHTIRUVCHI DAM OLİSH TURİZMI o‘ta shaxsiy individual xarakter kasb etadi. Lekin ko‘pgina holatlarda, kira haqiga chegirmalar olish maqsadida hamkorlik uchun turistlar birlashadilar. Turizmni boshqa turlariga nisbatan davolanish uchun turlar odatdagi muddatlardan ko‘proq bo‘lib 24-28 kunni tashkil etadi.

SOG‘INISH, QO‘MSASH TURİZMI. Turizmni mazkur turi qarindoshlarinikiga, tug‘ilgan joylarga va yaqinlarinikiga tashrif qilish ehtiyojiga asoslangan va xalqaro turistik almashuvda muhim o‘rinni egallaydi.

SUVDA SAYOHAT QILISH MARSHRUTLARI – (water tour) shulardan eng ko‘p tarqalgani suv sayyoqligi - boat tour - qayiqlarning har - xil turlarida, yaxtalarda, poroxod-kemalarda sayr qilib, dam olishni o‘z ichiga oladi.

TASNIFFLASH deb, predmetlar, hodisalar, tushunchalarni klasslar, bo‘limlar, umumiy xususiyatlaridan kelib chiqib guruhlarga taqsimlashdir.

TANISHUV (EKSKURSION) TURİZM. Turizmni bu turi o‘z ichiga tanishuv (bilish, ko‘rish va eshitish) maqsadlari bilan bog‘liq tashrif va sayohatlarni o‘z ichiga oladi.

TASHKIL ETILGAN TURİZM – bu tur tashkilotlar tomonidan tashkil etilagan alohida shaxslarni yoki bir guruh turistlarning sayohatidir. Tashkil etilgan turistlar, turistlar yo‘llanmasini harid qilish yo‘li bilan sayohat xuquqini qo‘lga kiritadilar.

TARIXIY VA BIOGRAFIK EKSKURSIYALAR - taniqli shaxslarning hayoti va faoliyati joylariga sayohatlar.

TAXMON — xona devoridagi ko‘rpato‘shak yig‘ib qo‘yiladigan maxsus joy. O‘rta Osiyo turar joy me’morligida mehmonxona to‘rining o‘rtasiga (2 yoni tokchali, chinnilar terilgan), yotoqxonaning 2 yoniga (o‘rtasi tokchali, kiyimlar taxlangan) ishlangan. Taxmonning eni va bo‘yi taxlanadigan ko‘rpa va sandiq joylanishiga

mo‘ljallangan. Yuqori qismi ravoq va to‘rtburchak shaklda qurilib, ganchkori bezak, muqarnas kosachalar va turli rangdagi yorqin bezaklar bilan pardozlangan.

TEMIRYO‘L TURISTLIK MARSHRUTI – (rail adventure tour) – bunda turistlar safar davomida ko‘pgina joy va mintaqalar bilan tanishadilar, bu davrda ular vagonlarning juda ham qulay kupelarida yashaydilar, ko‘chib yuruvchi restoranlarda ovqatlanadilar.

TEXNOLOGIK XARITA- mazkur ekskursiyani muvafaqqiyatli o‘tkazish, ob’ektlarni samarali ko‘rsatish, ekskursiyani olib borish uslubiyati va texnikasini to‘g‘ri tanlashni ko‘rsatib beruvchi, gidning harakatlarini tartibga soluvchi hujjat

TIM — usti yopiq bozor, savdo rastasining baland tomi, gumbazi.

TILLA KORI — (fors. — tilla bilan ishlangan) amaliy bezak san’atida buyumlarni bezatish usuli, zarqallah. Shu usulda bezatilgan buyumlar ham tillakori deb ataladi. Oltin parralari eritilib, buyumlar sirtiga yediriladi, zarqallanadi. Me’morlikda bino bezaklari — naqshlar zarhal bilan tillakori bezatilgan. Jumladan, Samarqanddaggi Tillakori madrasanining nomi ham shundan.

TOBADON — xalq me’morligida qo‘llaniladigan eshik, deraza tepasidagi kichik darcha, panjarali tuynuk. Maqbara, Madrasa hujralari va boshqa binolar eshigi tepasiga to‘rtburchakli, ravoqchali va boshqa shakkarda ishlanib, ganch yoki yog‘och o‘ymakorligida tayyorlangan panjaralar o‘rnatilgan. Xona ichkarisini shamollatish, yoritish uchun xizmat qiladi.

TURIZM SOHASINING SUBYEKTLARI — turistik xizmatlar majmuini yoki ularning bir qismini ko‘rsatish, qo‘sishimcha turistik xizmatlarni (ishlarni) bajarish hamda turistlar va ekskursantlarga tovarlarni realizatsiya qilish bo‘yicha tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar;

TUR — turistik xizmatlarning kamida ikkita turini o‘z ichiga olgan turistik xizmatlar majmui bilan ta’minlangan, belgilangan yo‘nalish bo‘yicha aniq muddatlardagi sayohat;

TURIZM — jismoniy shaxsning vaqtincha bo‘lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo‘nab ketishi (sayohat qilishi);

TURIST — vaqtincha bo‘lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda vaqtincha bo‘lish mamlakatiga (joyiga) yigirma to‘rt soatdan ketma-ket o‘n ikki oygacha bo‘lgan davrga boruvchi yoki vaqtincha bo‘lish mamlakatida (joyida) kamida bir kecha tunab qoluvchi jismoniy shaxs;

TURISTIK VAUCHER — turistning tur tarkibiga kiruvchi xizmatlarga bo‘lgan huquqini belgilovchi va ularning haqi to‘langanligi faktini tasdiqlovchi hujjat;

TURISTIK YO‘NALISH — sayohat vaqtida turist, ekskursant tashrif buyuradigan asosiy joylarning ro‘yxati bo‘yicha turistning, ekskursantning rejalashtirilgan harakatlanish yo‘li;

TURISTIK XIZMATLAR — joylashtirish, ovqatlantirish, transport, ekskursiya va maslahat xizmati ko‘rsatish bo‘yicha xizmatlar, shuningdek turist va ekskursantning ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan xizmatlar.

TURISTIK GURUX RAHBARI - turistik faoliyat sub’ektlarining vakili bulgan va uning nomidan ish kurib, turistlarga xizmat kursatish shartnomasi shartlarining bajarilishini ta’minlovchi jismoniy shaxs;

TURIZMNING PASSIV TURIGA turistik sayyoqlikning tinchroq va kam kuch sarf qilinadigan, jismoniy zuriqishga xos bo‘lmagan turi kiradi.

TURIZM STRATEGIYASI turizmni rivojlantirish va qayta tashkillashtirish sohasidagi davlat faoliyatini belgilaydi. Bu faoliyat avvalo amalga oshirish uchun vaqt va kattagina moliyaviy resurslarni talab etuvchi maqsadli dasturlar va rivojlanishning umumiy konsepsiyasini ishlab chiqishga qaratilgan.

TURISTIK AGENTLIK- xorij yoki mamlakat ichida turistik safarlarga tayyorgarlik ko‘rishda ma’lum ishlarini bajaradigan tashkilot.

TURISTLIK KLASS 2-3 yulduzli mehmonxonalarda joylashtirishni doimo aviareyslarning iqtisod klasslarida uchishni, shved stoli bo‘yicha ovqatlanishni, guruhli transfertni nazarda tutuvchi eng ommalashgan xizmat ko‘rsatish turidir.

TURTO‘PLAM (tarpaket) – iste’ molchilarga guruhli yoki individual variantlar bo‘yicha taqdim etiladigan xizmatlar to‘plamiga kiradi.

SULS XATI – bir narsaning uchdan bir hissasi yoki uchinchi hissasi demakdir. «Suls xati» deyilishiga sabab shuki, bunda qalamning uchinchi hissasi ishlatiladi yoki

وطنی سوّاق اعمازاندیر

qalamning uchdan bir hissasi ko'proq ishga solinadi. Ibn Bavvob birinchi bo'lib nuqta o'lchovlariga tayangan

holda, suls xati harflari shaklining grafik asoslarini ixtiro etgan, odatda bob va sarlavhalarni «suls» xati bilan ko'chirilishi shart bo'lgan.

O'LKASHUNOSLIK ESKURSIYALARI - o'lka tarixini bilishga asoslangan ekskursiyalar.



USTUN — binoning tayanch qismi. Asosan, tomni ko'tarib turishga xizmat qiladi. Ustun deyarli hamma xalqlarning me'morligida qadimdan mavjud.

YO'RIQCHI-YO'L BOSHLOVCHI

turistik yo'naliishlarda turistlar va ekskursantlarga hamrohlik qilish hamda ularning xavfsizligini ta'minlash uchun kasbiy jihatdan tayyorgarlik ko'rgan, O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan jismoniy shaxs

XALQARO TURIZM – vaqtinchalik kelgan joyida faoliyati to'lanmaydigan, doimiy yashaydigan mamlakat chegarasidan tashqariga turistlik maqsadlarda safar qilishi.

CHIQUVCHI TURIZM – bir mamlakat hududida doimiy yashovchi shaxsni boshqa mamlakatga faoliyati to'lanmaydigan sayohati, tashrifi.

CHORSU - chorrahada qurilgan usti berk bozor binosi.

SHAXSIY YOKI IJARADAGI AVTOMOBILLARDAGI TURIZM - (self drive itineraries) o'z mashinasidan ajralmagan holda sayohat qiladigan turistlar guruhi ham mavjud. Ular bir qancha tranzit vizalar olib, murakkab marshrutlar bo'ylab bir necha mamlakatlarni kesib o'tishadi, ayrim vaqtarda ular mashinalari

orqasida ko‘chib yuruvchi uylarni sudrab yuradilar, unda ular taom tayyorlashadilar, ovqatlanishadilar va tunashadilar.

SHOP-TURLAR - Rossiya va SNG davlatlari uchun xosdir. Xorijga tashrifning asosiy maqsadi bo‘lib, olib yana qayta sotish uchun halq iste’moli tovarlarini harid qilish hisoblanadi (poyafzal, trikatoj va boshqa tovarlar – Turkiyada, Italiya, Portugaliya, Suriyada; yozgi to‘qima kiyimlar – Indoneziyada; pustinlar – Gresiya va Argentinada; mebel – Polsha va Italiyada; tele-radio mahsulotlar BAA da; avtomashinalar Germaniyada, Shvesiyada, Finlandiyada, Gallandiyada).

YARIM PANSION- (ikki marta ovqatlanish) ertalabki nonushta va tushlik yoki kechki ovqat nazarda tutilgan bo‘ladi.

O’RGANUVCHI TURIZM - SONNOISSCUR TOUR - Turizm markazlariga biror narsa o‘rganish uchun borishdan iborat. Bular dunyoga mashhur Nyu- York (har yili 32 mln turist bu yerga o‘rganish maqsadida borishadi), Parij, Madrid, Rim, Peterburg, Qoxira, Singapur, Gongkong, Rio-de-Janero va shu kabi shaharlardir. Turistlarning qiziqish ob’ekti bo‘lib qadimgi joylar, muzeylar, haykallar, shaharlarning chiroyli landshaftlari xizmat qiladi.

O’RTA (KLASS) BO‘G‘INLI MEHMONXONA- O‘z sig‘imi bo‘yicha oteldan katta (400-200 o‘rinli) shahar markazida yoki shahar atrofida joylashgan. Yetarli darajada keng xizmatlar turini taqdim etadi, ulardagi narxlar u joylashgan mintaqa darajasiga teng yoki undan bir muncha yuqoriyoq bo‘lishi mumkin. Biznesmenlar, xususiy turistlar, kongress, konferensiya ishtirokchilarni va hakozolarni qabul qilishi mumkin.

